

O`QUVCHILARGA TA`LIM TARBIYA BERISHDA O`QITUVCHI VA OTA-ONA BIRDEK MAS'UL

Isroilova Shoxida Dexqonovna

Fargona viloyati yuridik texnikumi oqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta`lim va tarbiyaning o`zaro bog`liqligi, bola tarbiyasi davlat miqyosidagi siyosiy muammo ekanligi, bolani tarbiyalash, unga ilm berish faqatgina ustozgagina xos emas, balki ota-onaga, butun jamyatga tegishli ekani, bola tarbiyasida yo`l qo`yiladigan xatoliklar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *o`qituvchi, o`quvchi, ota-ona, bola, ilm, talim-tarbiya, maktab, odob-axloq, barkamol rivojlangan.*

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o`rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta`sirchan kuch — oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro`sining yuqori bo`lishi, bolalarga talab qo`yishda oila kattalari o`rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e`tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo`yish, oilada qat`iy rejim va kun tartibini o`rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-ni hisobga olish, boladagi o`zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo`llab quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a`zolari o`rtasidagi munosabat samimiy bo`lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo`ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro`sni, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo`ylikdan iborat bo`lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko`p qismi oilada o`tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta`sirida bola asta-sekin ka-mol topib boradi. An`ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo`lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo`yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg`in jalb qilishga ham bog`liqdir. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o`zlarining burch va mas`uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o`qishga, mehnat qilishga o`z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo`qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta`sir kuchi yo`qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo`pol, dag`al bo`lib qoladi, kattalarga ishonmay

qo'yadi, o'qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'limgartarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Otaonalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-onasi oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvordan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-onasi maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak. O'qituvchi va sinf rahbari ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yog'i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

"Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-onasi maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvordan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchini xabardor qilib turishi kerak". Shuning uchun hamma birdek harakat qilish kerak. "Ilm ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi". Ana shu yomg'ir orqali o'qituvchi o'quvchilarni sug'oradi. Bu yomg'ir suvlardan qonib-qonib ichish o'quvchining o'ziga bog'liq, ya'na ota-onasiga ham. Ota-onasi bu suvlardan ichishi uchun farzandiga yordam bermog'i kerak. Shunday ekan bolani komil inson bo'lishi uchun o'qituvchi, ota-onasi va bolaning o'zi ham harakat qilmog'i kerak. Hamkorlikda ish qilinsa, bolani kamolotga yetkazish yo'lida o'sish bo'ladi. Shu sababli bolasini kamolotini istagan ota-onasi ustoz bilan hamkorlikda ish olib boradi va bolasini o'qishini nazorat qiladi. Uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tibor beradi. Xullas, bolaning kamol topishi uchun o'qituvchi ham, ota-onasi ham xatto o'sha bolaning o'zi ham harakat qilishi kerak ekan. Shundagina o'sish bo'ladi, natija bo'ladi. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ota-onasi o'z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun tarbiya samarali bo'lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-onasi ilmli tarbiyali bo'lishi kerak. Farzandlarimiz ilmli va tarbiyali bo'lishi uchun o'zimizni

ma'naviy rivojlantirishimiz va atrofdagi bolalar tarbiyasiga ham befarq bo'lmaslik zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.** Uzbekistan, O. F. To verify Questionnaire of the “Uzbek Index of Premature Ejaculation”.
- 2.** Xamedxuja o'g'li, N. E. (2023). Pathogenetic Mechanisms of the Development of Severe Functional Disorders in Injuries of the Calf-Acorn Joint. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMUY JURNALI*, 2(11), 427-429.
- 3.** Xamedxuja o'g'li, N. E. IMPROVEMENT OF TREATMENT METHODS FOR CALF-ASIK JOINT INJURIES.
- 4.** Nurmanov, A. Q., & Jabbarova, I. (2023). TURK XOQONLIGI HARBIY SAN'ATI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(22), 32-40.
- 5.** Safarov, K., & Jabbarova, I. (2023). SALJUQIYLAR IMPERIYASI-TARIXDAGI BUYUK DAVLAT. *Models and methods in modern science*, 2(13), 149-155.
- 6.** Shonazarov, M., & Jabbarova, I. (2023). O 'ZBEK JANGCHILARINING IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI JASORATLARI. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 160-167.
- 7.** Amirova, Z., & Jabbarova, I. (2024). OSIYO ARSLONINING QULASHI. *Инновационные исследования в науке*, 3(1), 141-150.
- 8.** Azimova, N. B. (2024). Statistical Analysis of the Onomastics of the Work "Days Gone By" by Abdulla Kadiri. *American Journal of Philological Sciences*, 4(02), 79-86.
- 9.** Bafoyeva, N. (2024). ABDULLA QODIRIYNING "O 'TKAN KUNLAR" ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(1), 25-30.
- 10.** Kilichev, B., & Bafoeva, N. (2022). Some characteristics of onomastic units in abdullah qodiriy's novel" bygone days". *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(1), 314-317.
- 11.** Шербекова, Г. Я., Бафоева, Н. А., & Нурова, Ю. У. (2020). Особенности узбекской литературы XVII-XIX веков. *Вестник науки и образования*, (2-2 (80)), 105-108.
- 12.** ugli Arzimatov, B. Z. (2024). SPECIFIC ASPECTS OF INVESTMENT MANAGEMENT IN THE TOURISM SECTOR. *World of Scientific news in Science*, 2(3), 144-148.

- 13.** Arzimatov, B. Z. (2023). PROMOTION OF FOREIGN TRADE IN THE COUNTRY'S ECONOMY. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 18, 136-139.
- 14.** Arzimatov, B. Z., & Askarova, R. N. (2023). EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN RELATIONSHIPS BETWEEN MANAGER AND EMPLOYEE. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(9), 36-39.
- 15.** Arzimatov, B. (2023). The role of the leader in the systematic organization of management relations. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 16, 157-160.
- 16.** Zokirjon o'g'li, A. B. (2023). TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(2), 159-162.
- 17.** Zokirjon o'g'li, A. B. (2022). TURIZM INFRATUZILMASINI OSHIRISHDA INVESTITSIYALARNI BOSHQARISHNI O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATS/YA*, 1(6), 99-103.
- 18.** Рузиева, М. (2023). ТАРЖИМА ПЛАТФОРМАСИ-МУТАРЖИМ ЛИСОНИЙ ТАФАККУРИНИНГ КЎЗГУСИ. *Наука и технология в современном мире*, 2(20), 37-39.
- 19.** Ruzieva, M. (2023). REFLECTION OF TRANSLATOR'S LINGUACULTURAL AND SOCIOCULTURAL COMPETENCE IN ENGLISH AND RUSSIAN TRANSLATIONS OF THE UZBEK NOVEL "O'TKAN KUNLAR" BY ABDULLA QADIRI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6 Part 2), 61-65.
- 20.** Ruzieva, M. (2023). REFLECTION OF TRANSLATOR'S LINGUACULTURAL AND SOCIOCULTURAL COMPETENCE IN ENGLISH AND RUSSIAN TRANSLATIONS OF THE UZBEK NOVEL "O'TKAN KUNLAR" BY ABDULLA QADIRI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6 Part 2), 61-65.
- 21.** Ruzieva, M. (2023). REFLECTION OF TRANSLATOR'S LINGUACULTURAL AND SOCIOCULTURAL COMPETENCE IN ENGLISH AND RUSSIAN TRANSLATIONS OF THE UZBEK NOVEL "O'TKAN KUNLAR" BY ABDULLA QADIRI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6 Part 2), 61-65.
- 22.** Ruzieva, M. (2022). BIOLOGICAL FEATURE OF THE HUMAN LINGUISTIC SYSTEM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 2022(2022).

- 23.** Ruzieva, M. (2022). INTERPRETATION OF SOCIO-COMMUNICATIVE AND LINGUA-CULTURAL ASPECTS IN TRANSLATOR'S THINKING. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 25(25).
- 24.** Рузиева, М. Х. (2022, October). ПЕРЕВОД КАК ВЫРАЖЕННАЯ РЕАЛЬНОСТЬ СОЗНАНИЯ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 5, pp. 81-85).
- 25.** Akbarova, R. A. (2019). TEACHING ENGLISH THROUGH STORY TELLING IN ELEMENTARY CLASSES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 297-304.
- 26.** Гафуров, Б. З. ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ОТ СЎЗ ТУРКУМИ СЕГМЕНТ ФОНОСТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ БАДИЙ АДАБИЁТ ОРҚАЛИ ТАҲЛИЛИ АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ СЕГМЕНТНОЙ ФОНОСТИЛИСТИКИ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. *ANIQ VA TABIIY FANLAR MUNDARIJA.*
- 27.** Гафуров, Б. З. (2009). Роль сокращения фонемного состава слова в образовании сегментных фоновариантов существительных русского, узбекского и английского языков. *Современные гуманитарные исследования*, (6), 124-126.
- 28.** Гафуров, Б. З. (2010). Презентация фоностилистики в узбекском языкоznании (на материале фоновариантов имён существительных). *Modern Turkluk Arastirmalari Dergisi.–Ankara, Turkiye*, 7, 68-83.
- 29.** ГАФУРОВ, Б. (2014). Проблематика фоностилистики в русском, узбекском и английском языкоznании. *Узбекистонда хорижий тиллар. Илмий–методик электрон журнал.-Тошкент*, (3), 125-133.
- 30.** Гафуров, Б. З. (2021). АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-1).
- 31.** Gafurov, B. Z. (2022). Neologisms and their funktions in the field of medicine. *Journal of intellectual property and human rights*, 1(08), 41-44.
- 32.** Gafurov, B. Z. (2022). Sociolinguistics and its functions in modern linguistics. Economy and innovation. Vol. 26. *Poznan, Taxes USA*, 92-95.
- 33.** Zakirovich, G. B. (2022). Service Parts of Speech as an Important Component of Advertising Text in Russian and Uzbek Languages (By the Material of Advertising in the Sphere of Medicine). *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 3, 1-7.
- 34.** Zakirovich, G. B. (2023). SPECIFICATION OF ERROR CORRECTION IN LANGUAGE LEARNING PROSESS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL*

SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(05), 8-13.